



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 2

2026

OKKAZIONAL YASALMALAR LINGVOPOETIK TAHLIL OBYEKTI SIFATIDA

Inogamova Nargiza Savkatovna

Mirzo Ulugʻbek nomidagi Oʻzbekiston Milliy universiteti, katta oʻqituvchi

Annotatsiya

Lingvopoetika til birliklarining badiiy asarlardagi estetik vazifasi va poetik imkoniyatlarini oʻrganadi. Tahlilning usuli badiiy matnning chuqur maʼno qatlamlarini ochishga, muallifning uslubi va poetik mahoratini anglashga xizmat qiladi. Maqolada badiiy matn tahlilida okkazonalizmlarning lingvopoetik imkoniyatlari xususida soʻz boradi. Okkazonalizmlarning badiiy asar emotsional-ekspressivligini taʼminlashdagi oʻrni, ularning yasalishi xususidagi fikrlar bayon qilinadi. Badiiy matn tahlilida okkazonalizmlarning lingvopoetik imkoniyatlari Oʻzbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzo sheʼriyati misolida tahlilga tortilgan.

Kalit soʻzlar: badiiy matn, badiiy matn tahlili, okkazonalizm, lingvopoetika, lingvopoetik imkoniyatlar, okkazonal yasalmalar, matndagi tushunchalarni obrazli nomlash.

ОККАЗИОНАЛЬНЫЕ ОБРАЗОВАНИЯ КАК ОБЪЕКТ ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКОГО АНАЛИЗА

Иногамова Наргиза Савкатовна

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека, старший преподаватель

Аннотация

Изучение языка художественных произведений является центральной проблемой лингвопоетики. В них разрабатываются различные методы и способы анализа художественного текста, среди которых можно выделить два основных подхода: лингвистический и литературоведческий. В данной статье анализируются лингвопоэтические возможности окказионализмов. Изучается эстетическая функция окказионализмов и методы их образования. Лингвопоэтические возможности окказионализмов анализированы на примере поэзии народного поэта Узбекистана Икбола Мирзо.

Ключевые слова: художественный текст, анализ художественного текста, лингвопоэтика, окказионализмы, лингвопоэтическая значимость, эстетические свойства.

OCCASIONAL WORD FORMATIONS AS AN OBJECT OF LINGUOPOETIC ANALYSIS

Inogamova Nargiza Savkatovna

Mirzo Ulugʻbek National University of Uzbekistan, Senior Lecturer

Abstract

Linguopoetics studies the aesthetic function and poetic potential of linguistic units in literary works. This method of analysis helps uncover the deep layers of meaning within a text and serves to understand the author's style and creative mastery. The article discusses the linguopoetic potential of occasionalisms in the analysis of literary texts. It presents views on

the role of occasionalisms in ensuring the emotional-expressive quality of a literary work and their formation. The linguopoetic potential of occasionalisms in literary text analysis is examined through the example of the poetry of People's Poet of Uzbekistan, Iqbol Mirzo.

Keywords: literary text, literary text analysis, occasionalism, linguopoetics, linguopoetic potential, occasional formations, figurative naming of concepts in the text.

Keyingi yillarda badiiy asar tilini lingvopoetik jihatdan tahlilga tortish ko'pgina ilmiy tadqiqotlar markazida bo'lib kelmoqda. Negaki badiiy matnni tahlil qilishda lingvopoetik yondashuv muhim ahamiyatga ega. Ma'lumki, lingvopoetika til birliklarining badiiy asarlardagi estetik vazifasi va poetik imkoniyatlarini o'rganadi. Bu tahlil usuli matnning chuqur ma'no qatlamlarini ochishga, muallifning uslubi va ijodiy mahoratini anglashga xizmat qiladi. Shu bois bunday tadqiqotlar asosida tilshunoslarimiz tomonidan badiiy matnni til va adabiyot nuqtayi nazaridan tadqiq etishda qo'llaniladigan usullar ishlab chiqilmoqda. Xususan, badiiy matn lingvistik tadqiqida so'zning estetik ta'siri, ma'no va mazmun uyg'unligi, lingvopoetik tahlil olib borishda muallifning individual uslubi, badiiy matnning mohiyati va estetik vazifasi, badiiy matn estetik ta'sirini oshiruvchi badiiy aktuallashgan leksik vositalarning tahlili kabi masalalarga alohida to'xtalish lozim.

Dunyo tilshunosligida ham o'zbek tilshunosligida ham shu kunga qadar lingvopoetika sohasida qator tadqiqotlar amalga oshirilgan, monografiyalar chop etilgan. Lingvopoetikaga oid ishlarda ijodkorning mahoratini ko'rsatuvchi vositalar ko'chimlar, metaforalar qatorida okkazonal yasalmalarga ham o'rin berilgan ishlar mavjud. Jahon tilshunosligida B.A.Belova, V.V.Lopatin, E.A.Zemskaya, N.I.Feldman tadqiqotlarida okkazonalizmlarga oid qimmatli fikrlar berilgan. Badiiy matn tahlili, so'z yasalishi tadqiqiga oid ishlarda ham okkazonal yasalmalarga tadqiqotchilar to'xtalib o'tganlar. O'zbek tilshunosligida S.Toshaliyeva birinchilardan bo'lib okkazonalizmlarning yasalishiga doir tadqiqotini amalga oshirgan. O.To'xtasinovanning "O'zbek tilida leksik okkazonalizmlar va ularning badiiy-estetik xususiyatlari" mavzusidagi tadqiqoti okkazonalizmlarning xususiyatlari, yaratilishi masalalariga qaratilgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.A.Hojiyevning "Tilshunoslik terminlarning izohli lug'ati"da okkazonalizmlarga quyidagicha ta'rifi beriladi: "Okkazonalizmlar. Mahsuldor bo'lmagan model asosida yasalgan va faqat shu nutqiy matnning o'zida qo'llangan so'z, individual-uslubiy neologizmlardir".

Tadqiqot metodologiyasi.Neologizmlar endi paydo bo'lganida yangilik bo'yog'ini saqlab turadi, til iste'molchilari tomonidan o'zlashtirilganidan so'ng yangilik bo'yog'ini yo'qotib, me'yoriy so'zlar qatoriga o'tadi. Faqat shu soha bilan shug'ullanuvchilar va tilshunoslargina bu so'zlarni qachonlardir yangi so'z bo'lganligini eslab qoladilar. Okkazonalizmlar esa neologizmlarga nisbatan badiiy matnlarda yashaydi. Okkazonalizmlar ham neologizmlar singari badiiy asarlarda uslubiy vazifani bajaradi, ammo ularning badiiy-estetik vazifasi yuqoriroq bo'ladi. Okkazonal yasalmalar nutq jarayonida muhim uslubiy vazifa bajarganidek, tilning leksik tarkibini ham boyitib boradi. Badiiy asarlar, ayniqsa, she'riyat badiiy okkazonalizmlar yaratiladigan maydon hisoblanadi. Shoir yoki yozuvchi o'zining xayoliy dunyosini kitobxonga yetkazish uchun izlanadi. Okkazonalizmlarning asosiy vazifasi aniq badiiy nutqiy holat uchun xizmat qilish bo'lib, ular til faktiga aylanishi yoki aylanmasligi mumkin. Ularning qimmati bu bilan emas, kontekstda o'zining badiiy funksiyasini qanday bajarganligi bilan o'lchanadi. Badiiy adabiyotda nafaqat mazmun, balki so'zning qanday jaranglashi ham muhim rol o'ynaydi. Mazmun va jarangdorlik birgalikda ta'sirchanlikni vujudga keltiradi. Demak, badiiy nutqda asosiy e'tibor ana shularga qaratiladi. Badiiy nutqda ishlatilgan okkazonalizmlarni o'rganishdan shu narsa ma'lum bo'ladiki, ular

ma'lum maqsadlarda, xususan, nutqning mazmunini barcha qirralari bilan aks ettirish, ifodalanayotgan voqea-hodisani obrazli tasvirlash, muallif bermoqchi bo'lgan fikr va g'oyalarni aniq ifodalash, matnning emotsional-ekspressivligi, hissiy bo'yoqdorligini oshirish, berilayotgan matndagi biror voqea-hodisa, mavhum tushunchalar, joy va shaxslarni obrazli nomlash maqsadida qo'llanadi.

Tahlil. Maqolamizda O'zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzo she'riyati misolida so'zning badiiy asar qimmatini oshirishdagi muhim jihatlar ko'rib chiqish maqsad qilindi, xususan, shoir asarlarida qo'llangan okkazionalizmlar, okkazional yasalmalar tahlilga tortildi.

Iqbol Mirzo o'ziga xos so'z qo'llash mahoratiga ega bo'lgan shoirlardan biri. Uning she'rlari xalqona ohanglarda bitilganligi bilan boshqa shoirlarning ijod namunalaridan ajralib turadi. Bundan bir necha yillar avval dunyo tan olgan taniqli yozuvchi Chingiz Aytmatov Iqbol Mirzo timsolida zamonaviy o'zbek she'riyati iqbolini ko'rayotganligini aytgan edi. Yillar o'tib buyuk adibning fikrlari o'z tasdig'ini topmoqda. Iqbol Mirzoning qator she'rlari xalq orasida xalqchilligi, o'ziga xosligi bilan mashhur bo'lib, o'z muxlislariga ega bo'lib kelmoqda. Uning she'rlarida poetik nutqning serqirraliligini ko'rsatuvchi vositalardan biri bo'lgan okkazional yasalmalar talaygina. Qadimshunoslar, odamshunoslar, toshyigit, toshqiz, tilsimtosh, yomg'irzor, bog'iston, nozbo'y kabi yasalmalar shular jumlasidandir.

Okkazionalizmlarning yasalishiga e'tiborni qaratamiz. Shoirning "Yaproq" nomli she'rida qadimshunoslar, odamshunoslar, toshyigit, toshqiz kabi okkazionalizmlar uchraydi. – shunos biror soha bilan shug'ullanuvchi shaxs oti yasovchi qo'shimcha. Qadimshunos yasalmasi tarixshunos leksemasiga ma'nodosh. Lekin shoir she'rdagi keltirilgan voqeaning o'tmishga taalluqli ekaniga e'tiborni qaratib, arxeologik tadqiqotlar olib boruvchi shaxslarga nisbatan qadimshunoslar, odamshunoslar yasalmasini o'ylab topadi.

Okkazional so'zlarning yasaliş tizimining bir necha turlari mavjud: muayyan so'z yasaliş andozalariga muvofiq yasaliş: qadimshunoslar, odamshunoslar, yomg'irzor, xarobazor, bog'iston.

Bu yasaliş tizimida faol qo'shimchalar -zor, -kor, -goh, -iston, -dosh, -kash, -shunos kabi qo'shimchalardir. Bu qo'shimchalar asosga qo'shilib o'z vazifasini bajarsada, odatdagidan farq qiladi. Masalan, –zor qo'shimchasi til mezonlari bo'yicha jonli, o'suvchi narsalarni bildiradigan so'zlarga qo'shiladi, asosda anglashilgan narsa ko'p bo'ladigan joy nomini bildiradigan o'rin-joy otini yasaydi, lekin okkazional so'zlar tarkibidagi -zor qo'shimchasi ba'zan jonli, o'suvchi narsalarni bildiradigan so'zlarga emas, asosan mavhum otlarga qo'shilgan va bu tasodifiylik okkazioanal so'zlarni vujudga keltirgan:

Uch kunda kuz keldi. Dunyo qaridi.

Teraklar bosh chayqab qoldilar ma'yus.

Toshlar o'rmaydi anhor qa'rida,

Anhor qaylargadir shoshadi hanuz.

Ko'pirib boradi qo'ng'ir bulutlar,

Hademay yomg'irzor bo'ladi paydo.

Yerga quloq bosib yotadi o'tlar,

Yerdanmi keladi bu mungli navo?

Tabiat bir mo'jiza. Inson shu tabiatning bir bo'lagi. Fasllar almashinuvi, bu jarayonda tabiatda bo'ladigan o'zgarishlar insoniyatni hamisha lol qoldirib kelgan. Adiblarimiz ijodida fasllar almashinuvini inson umrining ma'lum davrlariga qiyoslanish hollari ko'p uchraydi. She'rdagi uch kunda kuz kelishi umrning qisqaligiga, dunyoning qarishi yoshlikning abadiy emasligiga, anhorning shoshishi shiddat bilan o'tib borayotgan hayotda insonning ezgu ishlarni qilib ulgurishiga ishora qilayotgandek tuyuladi. Ko'pirib borayotgan bulutlardan

yomg'irzorning paydo bo'lishi hademay boshlanadigan yog'ingarchilikka ishora. Misralardagi yomg'irzor so'zi okkazonalizm bo'lib, she'rning ta'sir kuchini yanada oshirgan. Aynan shu okkazonal yasalma she'rdagi yashirin ma'noni aniqlashga yordam bergan. Shoir ifodalamoqchi bo'lgan kuz fasli bilan bog'liq tabiatdagi o'zgarishlar yomg'irzor okkazonalizmi orqali inson tasavvuridagi mavjud tabiat o'zgarishlarini umumlashtirib, yanada chuqurroq his etishga undagan. Yomg'ir aslida ko'z yoshiga ishora. Yomg'irzor okkazonalizmida o'tayotgan umrni to'xtatib qola olmaslikdan, chorasizlikdan oqayotgan ko'z yoshlarga ishorani anglamoq kerak.

Muqaddas yering bor, qutlug' osmon bor,
Suyangan tog'ing bor, dilda iymon bor.
Ulug' bog'istonda buyuk bog'bon bor,
Kaftingga ko'z suray, dehqonim, yurtim,
O'zingdan o'rgulay, bog'bonim, yurtim.

Keltirilgan parchadagi "bog'iston" yasalmasi ham Iqbol Mirzoning o'ziga xos okkazonal ma'nodagi topilmasi bo'lib, she'rning badiiyati va ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilgan. Okkazonal ma'no – leksemaning tildagi ma'nosiga xos bo'lmagan ayrim shaxsning (muallifning) nutqiy vaziyatidan kelib chiqib, shu leksema mazmuniga yangicha tus berishi natijasida yuzaga keltirilgan sun'iy ma'no.

Parchadagi Bog' so'ziga –iston joy nomi yasovchi qo'shimcha qo'shilishi natijasida bog'iston leksemasi hosil bo'lgan. Bu leksemaning qo'llanilishida metafora usulida ma'no ko'chishiga guvoh bo'lamiz, ya'ni shoir tug'ilib o'sgan yurtini bog'lar jamlangan makonga, ya'ni bog'istonga o'xshatadi. Garchi bu yasalma xalq orasida ommalashib ketmagan bo'lsada, uning shu matndagi ta'siri sezilarli darajada yuqori ekanligi e'tiborni tortadi. Bu kabi topilmalar Iqbol Mirzo she'rlarida ko'plab uchraydi va ular o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Okkazonalizmlarning keyingi yasaliş turi so'z qo'shish yoki so'z birikmasini lug'aviy birlikka aylantirish yo'li bilan yasaliş. Shoir ijodida uchraydidan bozoryo'li, toshyigit, toshqiz, tilsimtosh kabi yasalmalar so'z birikmasini lug'aviy birlikka aylantirish yo'li bilan yasalgan.

Keyin tushib ketding, sezmadimgo'yo.
Qayrilib boqmading, ey, sun'iy yo'ldosh.
Meni ayadingmi, o'zingnimi yo?
Qiz qalbi qizg'aldoq emas, tilsimtosh!
Alanglaysan oyoq uchida,
Qiyofalar begona bari,
Bozoryo'li – qaynoq ko'chadan
Meni topolmaysan, dilbarim.

Yuqorida keltirilgan misollardagi, tilsimtosh okkazonal so'zi kompozitsiya usuli orqali yasalgan bo'lsa, "Alanglaysan oyoq uchida" she'ridagi bozoryo'li yasalmasi birikmalarini lug'aviy birlikka aylantirish yo'li bilan yasalgan va bu g'ayriodatiy so'zlar badiiy tasvirni yanada oshirgan. Xususan, bozoryo'li okkazonal so'zi bozorga olib boruvchi yo'l, bozorning yo'li va bu yo'lning qaynoqligi, ya'ni gavjumligini badiiy jihatdan ochib berishga xizmat qilgan. Bunday okkazonal so'zlar ijodkorning fikrini va o'ylarini o'quvchiga yanada aniqroq, ta'sirli va kengroq tarzda yetkazib berishga xizmat qiladi.

Rangi o'chdi atirgullarning, Xayr....
Chamanimdan nozbo'ylar ketdi. Xayr...
Oq qoraga ko'chdi kunlarim, Xayr...
Achchiq sog'inch tunlari yetdi...Xayr...

Iqbol Mirzo ijodida atirgul obraziga murojaatlar talaygina. Atirgul visol, sevgi-

muhabbat ramzi. She'rdagi atirgul rangining o'chishi, oshiqning chamanidan nozbo'ylarning ketishi, hayotdan mazmun, shodlik va quvonchning ketishiga ishora. Shoir metaforalardan mohirona foydalanib, oshiq qalbidagi tug'onlarni, his-tuyg'ularni obrazlar orqali mahorat bilan yetkazadi. Xijron, ayriliq motivlari bilan yo'g'rilgan ushbu misralardagi nozbo'ylar yasalmasi ham birikmalarni lug'aviy birlikka aylantirish yo'li bilan yasalgan bo'lib, badiiy matnning emotsional-ekspressiv bo'yog'ini oshirgan. Chamanimdan nozbo'ylar ketdi. Chamanzor gulzor so'ziga ma'nodosh. Gulzor leksemasi inson tasavvurida xushbo'y hid taraluvchi joy nomi sifatida gavdalanadi. Xushbo'ylik insonni sarmast qiladi. Salbiy tuyg'ularning ortga chekinib, xushkayfiyatlik holatiga olib kiradi. Bo'y leksemasi ham Hid leksemasiga ma'nodosh bo'lgani bois shoir qahramonning ruhiy holatidagi emotsionallikni oshirish maqsadida bo'y leksemasidan foydalanadi. Noz leksemasining mazmun planida yoqimli, nozik kabi semalar yotadi. Bu ikki leksemaning birlashuvi asosida nozbo'ylar okkazional yasalmasi hosil bo'ladi va bu yasalma badiiy matn mazmun planining ekspressivligini oshiradi.

Xulosa.Shuni o'rnida aytish mumkinki, badiiy matnning lingvopetik tahlili shu tilning poetik imkoniyatlarini ochishga, muallif tomonidan til xazinasidagi mavjud til boyliklaridan foydalanish mahoratiga baho berishga xizmat qiladi. Iqbol Mirzo she'riyatini lingvopoetik jihatdan tahlil qilinishi, xususan, uning okkazionalizmlardan foydalanish mahorati o'ziga xos ekanligi shoirning original uslubni yarata olganligidan dalolatdir. Okkazionalizmlar badiiy asar tilini boyitishda, ifodaning obrazlilikini ta'minlashda, ta'sirchanligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishi shoirning ijod namunalarida o'z aksini topgan. Iqbol Mirzo she'rlarining o'quvchi qalbidan chuqur o'rin olishi, uning ruhiyatiga, hissiyotiga kuchli ta'sir qilishining sababi ham mana shunda. Iqbol Mirzo she'riyatining lingvopoetik tahlil qilinishi o'zbek adabiy tilining, jumladan, o'zbek poetik nutqining o'ziga xos jihatlarini, betakror imkoniyatlarini ochib beradi. Bu esa o'z o'rnida o'zbek tilidagi badiiy matnlarning betakror imkoniyatlarining ochib berilishiga imkon yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Iqbol Mirzo. Ko'zlaringga termulsaydim. "Sharq" nashriyoti. Toshkent: 2020 –B.257.
2. Iqbol Mirzo. Ko'nglingda nima bor, bilmayman. "Sharq nashriyoti". Toshkent. 2020 – B.252.
3. Тошалиева С. Ўзбек тилида окказионал сўз ясалиши: Филол. фанлари ном...дис. – Тошкент, 1998. –Б.166.
4. Тўхтасинова О. Ўзбек тилида лексик окказионализмлар ва уларнинг бадий-эстетик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) дисс. – Тошкент, 2007 – Б.118.
5. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. ЎЗМЭ Давлат илмий нашриёти: — Тошкент, 1985. – Б.74.
6. Qurbonova M., Yo'ldoshev M. Matn tilshunosligi. Toshkent: Universitet, 2014.
7. Topildiyeva F.Farida Afro'z she'riyatida millat ruhiyati va til."New renaissance"international scientific jurnal. Toshkent. 2023.